

Ihombayeva Mahliyo Umidjon qizi
UrDU O‘zbek filologiyasi dakulteti talabasi
mahliyoilhombayeva@gmail.com

TOHIR MALIK “SHAYTANAT” ASARINING BADIY TAHLILI VA BUGUNGI KUN JAMIYATIGA TA’SIRI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Tohir Malik qalamiga mansub “Shaytanat” asarining qahramonlari badiiy tahlili va bugungi kundagi ahamiyati, jamiyatga ta’siri keng yoritilgan.

Annotation: In this article, the artistic analysis of the heroes of "Shaytanat" written by Tahir Malik, their importance and influence on the society is widely covered.

Аннотация: В данной статье широко освещен художественный анализ героев произведения Тахира Малика «Шайтанат», его значение и влияние на общество.

Inson boshqa mavjudotlardan nafaqat tafakkuri balki, boshqalarga bo‘lgan mehr-muruvvati, vijdoni, imoni bilan ham ajralib turadi. Ongini taniy boshlaganidan so‘ng hayotning katta sinovlar eshigi ochiladi. Asosiy sinov esa oldida turgan eng to‘g‘ri yo‘lni tanlash va shu yo‘ldan yurish bo‘ladi. Bu yo‘llar Ezgulik hamda unga yonma-yon turgan Jaholat yo‘llaridir. Garchi eng to‘g‘ri yo‘l bizga ko‘rsatilgan bo‘lishiga qaramay, yonimizda turgan yo‘ldan shayton turli xil jilolar bilan biz insonlarni o‘z olamiga taklif etadi. Tafakkur va imon libosini kiygan insonlar Ezgulik yo‘ldan qoqilmay davom etaverishadi. Ular uchun jaholat yo‘li berkdir. Ammo nafs deb atalmish kuchga qul bo‘lganlar esa barcha yovuzliklarni o‘zida mujassam etgan shayton olami bo‘lmish “shaytanat”ga yo‘l olishadi. Bu olamda nurli cho‘qqilarga erishish oson tuyuladi.

Tohir Malik ham o‘zining “Shaytanat” asari orqali yuqorida sanalgan voqealarni kengroq tanishtirishga urinadi. Asarda qahramonlar xarakteri tanishtirilmog‘chi bo‘lgan tushunchalarni kengroq yoritib berishga xizmat qilgan. Asardagi “shaytanat” dunyosi juda keng bo‘lib, borgan sari bu olamga bilib-bilmay, adashib kirib keluvchilar evaziga kengayaveradi. Maqsad esa bitta –boylik. Zulmning ildizini quritib, saodatli umrga yetishish yo‘llarini izlash. "Shaytanat"ni yozishdan asosiy maqsad shu edi desak yanglishmaymiz, menimcha. Dolg‘ali zamon, adolatsiz jamiyat, og‘ir ijtimoiy muhit tufayli boshiga hayotning turli sinovlari, ayanchli ko‘rguliklari tinimsiz yog‘ilsa-da, insoniy fazilatlaridan batamom mosuvo bo‘lmagan, qalbida or-nomusni saqlab qolgani bilan kitobxonlarning sevimli qahramoniga aylanib ulgurgan Asadbekning hayotida sodir bo‘ladigan voqea va hodisalar besh qismlik to‘plamda o‘z nihoyasiga yetadi. Qahramonlarning shaxsiyati va ularning turmush tarzi, xarakter xususiyati, ijtimoiy turmush tarzi bilan bog‘liq keskin va shu bilan bir qatorda kitobxonlar uchun qiziqarli bo‘lgan voqeliklar rivoji o‘tkir syujyvetli «Shaytanat» asarining asosini tashkil etadi. «Shaytanat» to‘plamining birinchi qismi «Qasos», ikkinchi qismi «Non bergan jon olmaydi», uchinchi qismi «Semirgan chumoli», to‘rtinchi qismi «Oqqush qo‘shig‘i», beshinchi qismi «Azozil do‘koni» deb nomlandi. Asarda barcha voqealar yirik jinoiy to‘da rahbari, “shaytanat” olamining yo‘lboshchisi, O‘qilon laqabi bilan atalgan Asadbek obrazi atrofida sodir bo‘ladi. Asadbek har qancha yovuz, qahri qattiq kishi bo‘lmasin, u, avvalo, inson edi. Zero, har qanday ona o‘z farzandini dunyoga keltirar ekan uni jinoyatchi, o‘g‘ri, yoxud qimorboz bo‘lsin degan niyatda dunyoga keltirmaydi. Asadbekning yuragida ham boshqa insonlarga xos xislatlar mavjud. U o‘z o‘rnida jonkuyar farzand, mehribon ota, g‘amxo‘r do‘st, samimiy aka hamdir. Asadbek obrazi asarda salbiy obraz sifatida tasvirlangan. Bu masalada adibning o‘zi bilan suhbatlashganda shunday javob beradi: «Rahmdil

kitobxon”emas, «rahmdil kinotomoshabin» desangiz to’g’ri bo’ladi. Chunki kitobni o’qigan odam Asadbekni yaxshi ko’rishi mumkin emas. Kitobda uning barcha illatlari berilgan. Kinoda esa bironta kamchiligi yo’q, go’yo farishta! Farzandlariga «Asadbek» deb ism qo’yayotganlar ham kinodan ilhomlanishgan”¹. Asadbek “shaytanat” olamining bir qismiga hokimlik qiluvchi saltanatning ham a’yonlari bo’lib, biri Asadning yoshlikdagi do’ssti Haydar Kesakpolvon bo’lsa, ikkinchisi Mahmud Chuvrindi. (Har bir olamning o’ziga yarasha qonun-qoidalari, an’analari bo’lgani kabi bu to’daning ham o’z an’analari mavjud. Shulardan biri laqab qo’yish edi.) Kesakpolvon yoshligidan kuchli va epchil, lekin aqlan tez va o’ylamay qaror chiqaradi. (“shaytanat”ning gullashida uning-da yaxshigina xizmatlari singgan.) Chuvrindi tashqi ko’rinishi umuman laqabiga mos bo’lmagan, doimo o’ylab qaror chiqaradi. Shuning uchun ham saltanatning eng mas’uliyatli ishlari uning bo’ynida edi. Har ikkalasining ham bu yo’lga kirishida ota-ona tarbiyasi yetishmovchiligi edi. Shunday deymiz-u, masalani yana bir tarafga yuzlansak ota-onasidan ayrilganlarning barchasi ham shu yo’lga kirgan emas. Buni asardagi qahramonlarning o’zaro dialoglarida ham uchratishimiz mumkin:

- Men do’zaxda kuyishimni bilaman, ammo mendan oldin o’sha sovet hokimiyati kuysin.
- Nega? – deb so’raydi ota.
- Agar otamni begunoh olib ketishmaganida, uni o’ldirishmaganida – onam o’lmas edi, ukam o’lmas edi, men esa bu ko’chaga kirmas edim, - deb javob qaytaradi Asadbek. Shunda Muhiddin ota deydi:
- Otasi otilganlarning barchasi ham bu ko’chaga kirgan emasku...²

“Shaytanatning” yana bir qahramoni xushovoz xonanda Elchin ham bu olamga adolat istab kirgan bandalardan. Qamoqqa tushmasidan oldin xalqning e’tirofiga sazovor bo’lgan qo’shiqchi Asadbek to’dasining suyuqli artistiga aylanadi. Bu bandani ham tinch qo’yamagan nafs balosi qimor deb atalmish boshi berk ko’chaga olib keladi. Berk ko’chadan chiqishning bitta-yu bitta yo’li o’zi suygan yori Noilani qimorga tikish edi. Nafs tutquni bo’lgan bandaga bu hech ish emasdi. Bu bilan u nafaqat xotining balki o’zining-da nomusiga oyoq qo’ygandi. Aybini kech tushungan nafs quli barcha ayblarni bo’yniga olib, o’lishi muqarrar paytda qo’li ko’p yerlarga yetuvchi hojasi Asadbek unga dars bo’lsin uchun jazoni yengillashtiradi. Ammo bu Elchinning qasoskorga aylanishiga va kelajakda o’ziga katta talofotlar keltirishiga sabab bo’ladi.

Asarning bugungi kunda jamiyat uchun ta’sir ko’rsatishida ijobiy yoki salbiy tarafdan qay birining ustun kelishi uzoq muddatdan buyon ko’pchilikni qiziqtirib kelmoqda. Kitobni o’qigan yoshlarning jinoyat ko’chasiga kirib ketishidan xavotirlansalar kerak. Menimcha agar bu asar yoshlarga salbiy ta’sir qilganida adib bu asarni yozmagan bo’lard. Yoshlarni oq-qorani erkin ajrata olishadi. Nazarimda, yoshlarning birontasi Hosilboyvachcha yoki Kesakpolvonga o’xshab yashab, ular kabi azobli o’lim topishni istamasa kerak. Yozuvchining niyati – jinoyat olamiga qiziqib, mahliyo bo’lib yurganlarni bu yo’ldan qaytarishga xizmat qilish. Umuman, u yoki bu kitobni o’qish natijasida jinoyat olamiga kirib qolgan odamni hali uchratganim yo’q. Lekin «Shaytanat»ni o’qish natijasida bu razil olamdan chiqib ketganlarni uchratishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 1. Tohir Malik “Shaytanat: Qasos” // O’zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2018.

¹ Anvar Namozov. Tohir Malik gurunglari. O’zbekiston NMIU, 2016.

² Tohir Malik Shaytanat (1-kitob). – Toshkent: “O’ME”, 2018. 414 bet..:

2. .Tohir Malik “Shaytanat: Non bergan, jon olmaydi ”// O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2018.
3. .Tohir Malik “Shaytanat: Semirgan chumoli ”// O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2018.
4. Tohir Malik “Shaytanat: Oqqush qo‘shig‘i ”// O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2018.
5. Tohir Malik “Shaytanat: Azozil do‘koni”// O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2018.
6. Anvar Namozov. Tohir Malik gurunlari. O‘zbekiston NMIU, 2016.